

ABDURAUF FITRAT IJODIDA ONA VATANGA BO'LGAN MUHABBAT**O.L.O`rinov**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7676898>

Yangi O'zbekistonning bugungi kundagi taraqqiyot strategiyasi davlatimiz iqtisodi bilan bo'liq bo'lgan barcha sohalar rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgani kabi butun boshli ma'naviy hayotini ham to'liq qamrab oldi. Taraqqiyot strategiyasi o'z o'rnida adabiyot va adiblar oldiga ham ulkan ma'suliyatli vazifalarni qo'ydi. O'sib kelayotgan yosh avlod elim, yurtim deb yashashi, vatanimizning gullab-yashnashi buyuk kelajakka ishonch ruhida tarbiyalanishi ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq. Ushbu ulkan ishlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonun va farmonlarga ko'ra ta'limning mazmuni va boshqaruvini milliy qadriyatlar, tarixiy, ma'naviy tarbiyaga mos tarzda tanlash va tashkil etish zarurayati belgilab berildi.

Ma'lumki, xalqimizning kelajagi, mamlakatning istiqboldagi taraqqiyoti farzandlarimizning qanday rivojlanishiga bog'liq.

O'zbek xalqining ardoqli farzandlari bo'lgan ajdodlarimiz o'zlarida vatanparvarlik tuyg'usini namoyon qila olgan. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning quyidagi so'zlarida milliy mansublikdan g'ururlanish, vatanparvarlik tuyg'usi yaqqol namoyon bo'ladi: "Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz ... mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq baxt-saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo'ladi ...".

Abdurauf Abdurahmon o'g'li Fitrat ham o'z Vatani sevadi, u bilan faxrlanadi, uni har narsadan muqaddas tutadi va yoshlarni Vatanni sevishga, ardoqlashga chorlaydi.

Fitrat XX asr o'zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili. U qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyachisi, o'tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovar publitsist, noshir va jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi edi. Fitrat ko'pqirrali va sermahsul ijodkordir. Bu — uning oz va soz lirikasi, ko'pqirrali dramaturgiyasi, jangovar publitsistikasi va katta hajmdagi chuqur ilmiy-tadqiqotlaridir. Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg'unlik, g'aflatdan uyg'otish, ilm-ma'rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi. U o'zbekning o'zligini tanishi, ota-bobolari kabi ulug'vor kashfiyotlar qilishga, birlashgan, kuchli, qudratli davlat tuzishga va dunyoning ilg'or madaniy



mamlakatlariga yetib olishga chaqirdi. Butun ijodining mohiyati xalqning qalb qo'zini ochishga va mehnat, yaratish, o'qish-unish, kurashga da'vatdan iboratdir. U ilk to'plami «Sayha» bo'lib, to'plam Vatanga muhabbat, xalqning g'am-g'ussasiga achinish va zulmdan qutulishga undash tuyg'usi bilan yo'g'rilgan:

Ham mohi mangu osoyishi, izzu sharafi man,
Ham Ka'bai man, qiblai man, chamani man.

(U — mening osmondash osoyishta oyim, izzatim, sharafim,
U — mening Ka'bam, sajdagohim, jonu tanimdir).

Fitratning «Uchqun» degan to'plamining chiqqanligi to'g'risida xabar bosilgan (1923 yil), lekin u topilmagan. Respublika matbuotida va «O'zbek yosh shoirlari» to'plamida (1922 yil), boshqa manbalarda uning talaygina she'rlari bosilgan. Garchand Fitrat fors, arab tillarini yaxshi bilsa-da, o'z she'rlarida iloji boricha ularni ishlatmaslikka va soddada o'zbek tilida yozishga intildi. Uning ustiga Fitrat o'z badiiy ijodi va ilmiy maqolalari orqali barmoq vaznining qulayligi va keng imkoniyatlarini targ'ib qildi. «Bir oz kull!», «Ishqimning tarixi», «Yana yondim...», «Qor» kabi she'rlari soddaligi va tuyg'u, kechinmalarni haqqoniy ifodalab berishi bilan jozibali-dir. «O'qituvchilar yurtiga» she'rida elni ma'rifat, haqiqat yo'liga yo'naltirish va jaholatga qarshi kurashga da'vat etadi:

Orqadoshlar, to'planaylik jahpning uyin yiqqali,
El ko'zin olg'on qorong'u pardalarni yirtqali.

Fitratning «Sharq» she'rida Sharqni, yurtini talagan, oyoqosti qilgan, erkiyu boyligini o'g'irlagan bosqinchilarga cheksiz nafrati ochiq aytiladi.

Fitratning mashhur she'rlaridan biri «Mirrix yulduziga» deb nomlanadi. Bu she'r uning boshiga ko'p kulfatlar soldi, uni millatchi deb ayblashda yana bir qo'shimcha dastak bo'lib xizmat qildi. She'rda Fitrat yulduz bahonasida Allohga murojaat etib, bolsheviklarning, bosqinchi rus askarlarining vahshiyliklarini fosh etadi va yurtdoshlarini ularga qarshi ozoddik kurashga da'vat etadi:

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar,
O'rtoq qonin qonmay ichgan zuluklar;
Qardosh etin qo'ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda o'ksuz yo'qsulning qonin
Gurunglashib, chog'ir kabi ichkanlar?
Bormi senda butun dunyo tuzugin
O'z qopchig'in to'ldirgani buzganlar?
Bormi senda bir o'lkani yondirib,
O'z qozonin qaynatg'uvchi hoqonlar?

Bormi senda qorin, qursoq yo'lida
Elni, yurtni, borin-yo'g'in sotqonlar?

Shu misollarning o'ziyoq Fitrat she'riyatining milliy uyg'onish va inqilobiy ruhdagi haqqoniy, mardona yo'nalishda ekanligidan dalolat beradi. Fitratning «Sayyoh hindi» («Hind sayyohining qissasi») nasriy asari 1912 yilda bosildi. Asarda jahon xalqlari, ilg'or mamlakatlar fuqarosi ko'zi bilan Buxoro, umuman Turkistonning davlat tuzumiga, tartib-qoidasiga, maorifiga nazar tashlab, ulardagi ibratli jihatlarni qo'llab-quvvatlab, illatlarini esa beayov fosh etadi. Asarni Buxoroni, umuman Turkistonni erk yo'liga olib chiqish dasturi deyish mumkin. «Umaro» bobida Fitrat amaldorlar «hukmronlik otiga minib, bechorayu badbaxt xalqning mol, jon, arz, nomus va sharafini shafkatsizlarcha poymol etdilar», «Hammaga ma'lumki, har bir millatning taraqqiyoti uchun ilm asosiy sababdir» deydi.

Fitrat tijorat va boy bo'lishni targ'ib etadi, ammo boylikka sajda qilish, iymon-e'tiqodni, insofni yo'qotishni qoralaydi. Asarda xalqni birlashishga, zavod-fabrikalar qurishga, tijoratni rivojlantirishga chaqiradi.

Fitratning «Eski o'zbek adabiyoti namunalari», «XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash», «Chig'atoy adabiyoti» kabi yirik tadqiqotlari va Umar Hayyom, Firdavsiy, Yassaviy, Navoiy, Muhammad Solih, Bedil, Mashrab, Turdi, Furqat, Muqimiy, Nodira to'g'risidagi kitob va maqolalari shu davr o'zbek adabiyotshunosligida bir voqea, bir davr bo'lib tarixga kirdi. Uning o'zbek musiqasi tarixi, shaxmat to'g'risidagi maqola, kitoblari qomusiy ilm egasi ekanligini tasdiqlaydi. «Tilimiz» maqolasida bitta «bil» o'zagidan 98 ta so'z yasash mumkinligini va turkiy tilning so'z boyligi fors, arab tillariga nisbatan ko'proq ekanligini isbotlab, lekin hozir o'z mavqeiga ega emasligini, «eng baxtsizligini» ta'kidlaydi. Fitrat ulug', betakror ijodkor edi.

U "Sayha" to'plamidagi she'rlaridan birida shunday yozadi:

Vatanni ziyorat qilmoqqa

Erta tongda kel.

Hay-hay qanday Vatan bu!

U mening sajdagohim,

Osoyishim, izzatim, sharafim,

Ham ka'bam, ham qalbim,

Ham chamanimdir.

Bu misralar vatanparvarlikning yuksak namunasi bo'lib, yoshlarda vatanparvarliktuyg'usini shakllantirishda alohida qimmatga ega. Muallif



Vatanning ravnaq topishi uchun yoshlarni dunyoviy ilmlarni egallashga da'vat etadi, bu yo'lda o'zi fidoyilik namunasini ko'rsatadi.

Fitratning fikricha, har bir inson hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun u sog'lom fikrli va pok axloqli bo'lmog'i kerak. Har millat o'z kelajagini o'ylar ekan, yoshlarga e'tiborini qaratmog'i, ularni muntazam jismoniy, aqliy, ruhiy tomonidan chiniqtirmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari – T.: Ma'naviyat, 2015. – 30 b.
2. Al-Buxoriy, Abu Alloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. 4 kitob. 1-K. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam) (arabchadan Z.Ismoil tarj.). – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 56 b.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-tom. "Xamsa", ("Hayrat ul-abror"), -T., Fan, 1991, - 390 b
4. Al-Moturudiy ta'limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o'rne. Ma'ruzalar to'plami. -T.: 2000. -115 b.
5. Aminov B., Rasulov T. Vatan - yurakdagi javohir. - T.: O'qituvchi, 2001. – 232 b.
6. Amir Temur o'g'itlari. – T.: "Navro'z", 1992. - 45 b

